

JAHON MATBUOTI ERKINLIGI HOLATI

Vokhidova Eziza Sherzodbek qizi
14- umumtalim maktab 11-sinf bitiruvchisi

Annotatsiya. Ushbu ishda ko‘plab chet el va milliy internet saytlari, yozma adabiyotlar, qo‘llanma, maqolalardan iqtiboslar, statistik ma’lumotlar va mavzuga oid rasmlardan foydalanildi. Bundan tashqari xalqaro qonun hujjatlarining Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakti, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi va boshqa hujjatlarning internetda joylangan nashrlari o‘zbek tilimizga tarjima qilingan holda ko‘rib chiqilib, ba’zi o‘rinlarda moddalardan misol tariqasida foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, internet, muloqot, qonun, madaniyat, ommaviy axborot vositalari

KIRISH

Jurnalist. Bu nom tilga olingan zahotiyoyq, ko‘z oldimizda axborot oluvchi, tarqatuvchi va ma’lumotlarni qidirib topuvchi soha vakillari gavdalanadi. Boisi, biz dunyoda va O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarни jurnalistlar talqini, ularning tavsifi orqali qabul qilamiz. Shuningdek, OAV ning eng muhim funksiyalaridan biri – aholining jamiyatda bo‘layotgan voqealarga nisbatan fikrini shakllantirish, davlat va xalq o‘rtasida muloqot maydonini o‘rnatish hisoblanadi. Aholining siyosiy, huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, ularning qarorlar qabul qilish va ijrosini nazorat qilishdagi faolligi ham OAV ning erkinligi va demokratik prinsiplar asosida faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq. Birigina misol: Shimoliy va Janubiy Koreyada bir xil millat – koreys xalqi yashaydi. Hududning iqlim sharoiti, yer tuzilishi, hattoki ikki davlatdagi odamlarning dini va tili ham bir xil. Lekin, rivojlanish darajasi, xalq farovonligi, turmush tarzida osmon va yer qadar farq bor. Buning javobi oddiy, bir davlatda yozilgan qonunlar ishlaydi, ikkinchisida esa yo‘q. Bir davlatda siyosiy institutlar, iqtisodiy institutlar bilan birga ishlaydi, ikkinchisida, siyosat iqtisodni o‘z yo‘rig‘iga solgan. Bugun yana bir geosiyosiy jarayonga guvohmiz, OAV ko‘zga ko‘rinmas quroqga aylanib bormoqda. Bugun yirik davlatlar boshqa hududlarni bo‘ysindirish, o‘z madaniyati va g‘oyalarini yoyishda OAV ning ta’sir imkoniyatlaridan foydalanmoqda.

Bu holatni chuqur tahlil qilgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida odamlarning yangilik va tahlillarga bo‘lgan ehtiyoji to‘ldirilmasa, buni boshqa mamlakatlardagi manbalar amalga oshirishini, aytgan.¹ Bu borada O‘zbekiston milliy axborot agentligining uza.uz saytining yutube va ijtimoiy tarmoq sahifalarida berib borilayotgan “Hafta tafsiloti”, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” telekanalining “Xalqaro hayot”, “O‘zbekiston 24” radiokanalining “FM meridian” dasturlarini e’tirof etmoqchimiz. “So‘z erkinligi - har qanday vosita bilan har qanday ma’lumot va g‘oyalarini yoyishda OAV ning ta’sir imkoniyatlaridan foydalanmoqda.

¹ <https://images.app.goo.gl/HdVBvxsXi3jPWT88>

huquqidir". So'z erkinligi va so'z erkinligi huquqi barcha turdagи g'oyalarga, shu jumladan chuqur haqoratomuz bo'lishi mumkin bo'lgan g'oyalarga ham tegishli. Lekin bu mas'uliyat bilan birga keladi va biz uni qonuniy ravishda cheklash mumkinligiga ishonamiz. E'tiborlisi, aksariyat dasturlar O'zbekiston Prezidentining joriy yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida axborot xavfsizligi masalalariga to'xtalib, O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishdagi tashabbusni saqlab qolishi kerakligi haqida gapirganidan so'ng², (masalan, "O'zbekiston 24" telekanalining "Xalqaro hayot" ko'rsatuvi) xalqaro voqealarni yoritish maqsadida tashkil etilgan. Ustoz, Karim Bahriyev ta'biri bilan aytganda "O'z og'rig'ingni his qildingmi – demak, tiriksan, birovning og'rig'ini his qildingmi – demak, insonsan", - degan avliyolar. Demak, ana shu shafiqlik, rahmdillik, hayo va muhabbat – insoniyikning, beshavqatlik, adovat, razolat esa hayvoniylilikning belgilaridir.³ Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, so'nggi yillarda jurnalistlar erkinligiga xavflar paydo bo'lgan. Shaxslar jamoalari ommaviy axborot vositalari, jumladan, jurnalistika faoliyatining tartibga solinishi rivojiga keskin zarar yetkazmoqda.⁴ Buyuk Britaniyada 1998 yildagi Inson huquqlari to'g'risidagi qonunning 10-moddasi so'z erkinligi huquqini himoya qiladi : So'z erkinligi va fikr erkinligi bir xilmi? Buyuk Britaniyada so'z erkinligi qonuniy jihatdan so'z erkinligi tushunchasining bir qismidir. Hukumatlar nafrat so'zlari va da'vatlarni taqiqlash majburiyatiga ega. Bular xavfli. Cheklovlar, agar ular muayyan jamoat manfaatlarini yoki boshqalarning huquqlari va obro'sini himoya qilsa, ham oqlanishi mumkin. So'z va so'z erkinligi bilan bog'liq har qanday cheklovlar qonunlarda belgilanishi kerak, bu esa o'z navbatida hamma tushuna oladigan darajada aniq va qisqa bo'lishi kerak. Cheklovlni qo'yayotgan odamlar (ular hukumatlar, ish beruvchilar yoki boshqalar bo'ladimi) ularga bo'lgan ehtiyojni ko'rsata olishlari va ular mutanosib bo'lishi kerak. Bularning barchasi ushbu cheklovlni suiiste'mol qilishni to'xtatish va tegishli apellyatsiya jarayonini kiritish uchun kafolatlar bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Jurnalistlarga qarshi huquqbazarliklarni ro'yxatga oluvchi va tahlil qiluvchi nodavlat tashkilotlar ham o'z statistikalarida buni keltirib o'tishgan. Bunday tashkilotlar qatoriga Chegara bilmas muxbirlar (RSF) va Jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi (CPJ) kiradi. Har yili RSF Jahon matbuot erkinligi indeksini e'lon qiladi, unda xorijiy muxbirlar duch keladigan xavf-xatarlarni jurnalistik erkinlik darajasiga ko'ra davlatlar reytingi tuzilgan holda taqqoslanadi. Turli mamlakatlardagi ommaviy axborot vositalari erkinligi holatining keng sarhisobi RSFning Jahon matbuot erkinligi indeksida keltirilgan. Ushbu indeksdan Shimoliy Koreya, Xitoy, Iroq, Eron, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya va Qirg'izistonda jurnalistika va so'z erkinligi holati hamda ularning 2024-yildagi natijalarini alohida misol sifatida keltirildi. Mavzu matnida yaqin 2019-2024-yillar va ba'zi joylarda 2000-yildan 2019-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi holatlar, vaziyatlar misol tariqasida keltirilgan va tahliliy mulohazalar bildirilgan. Har bir inson shaxsiy huquqiy savodxonlik darajasini o'sishi uchun albatta, xalqaro va milliy qonun yoki qonunosti hujjatlari bilan yaqindan xabardor bo'lib,

² <https://president.uz/uz/lists/view/6967>

³ Bahriyev K; Huquq va burch. – T., 2019. – B.21.

⁴ Edward. C;Chicago Journal of International law – CH.,2023. – P.1.

dunyoning siyosiy sahnidagi o‘zgarishlarni o‘z talqinida tahlil qilib borishi lozim. Huquqiy ong shakllanishi uchun uni huquqiy bilimga oid kitoblar, xalqaro huquq normalari va ularning moddalari matni bilan boyitib borishimiz zarur. Mamlakatimizda ham aynan jurnalistlar faoliyatiga oid 2019-yil 17-iyul kuni O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining IV konferensiyasida O‘zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi qabul qilindi. Kodeksda kasb majburiyati, jurnalistning ijtimoiy mas’uliyati, betaraflik va xolislik bundan tashqari bir qancha yo‘l-yo‘riq va yechimlar keltirilgan. Mavzuimizning tarkibi ham aynan xalqaro va milliy huquq normalari tegishli, asosan OAV yoki so‘z erkinligiga oid ba’zi moddalarining tahliliy tafsiflaridan iborat. Xususan, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakti, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyalariga oid moddalar tahlili va xalqaro jurnalistlarni himoya qiluvchi tashkilotlar ish faoliyati ham o‘rin olgan.

ADABIYOTLAR SHARI

Jahon matbuot erkinligi indeksi 2024-yil uchun.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, biror bir davlatda YAIMni 1%ga oshirish uchun axborot va kommunikatsiyalar sohalarining mamlakat hayotidagi rolini 3% ga oshirish zarur. Bu esa OAV faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini, jurnalistlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoyasini ta’minlashni talab qiladi. Buni yaxshi anglagan mamlakatlar so‘z erkinligini qadriyat darajasiga yetkazgan. Mamlakatda davlat va nodavlat OAVni qo‘llab-quvvatlashga sodiqligini namoyon etib kelmoqda. Buni AQSH, Germaniya, Angliya kabi rivojlangan mamlakatlarda aholi tomonidan to‘lanadigan soliqlarning ma’lum (3% atrofida) televiedeniye, radio va boshqa OAV uchun ajratilayotgani misolida ko‘rishimiz mumkin. Umumiyligida qilib aytadigan bo‘lsak, fuqarolar, xalq bilan davlat, jamiyatni bir-biriga bog‘lab turuvchi ‘to‘rtinchilik’ hokimiyat vakillarining huquqiy chegaralarini aniqlashtirib beruvchi huquq tizimi, huquq me’yorlarlari, milliy va xalqaro huquqiy mezonlar, qonun hujjatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi ham zurur.

“Huquq” nima o‘zi? Bu tushuncha ko‘proq xalq orasida qadriyat sifatida idrok etiladi. Shaxsning huquqiy ongi esa ana shu qadriyatlarni, me’yorlarni bilish orqali shakllanadi. Huquqning xolisligi u yoki bu shaxsning yoki huquqshunoslar so‘zi bilan aytganda subyektning mustaqilligini anglatadi.⁵ Jurnalistik huquq esa OAV faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har bir shaxsning kasbiy va shaxsiy hayotlarining daxlsizligi bilan bog‘liq huquqlar yig‘indisi hisoblanadi. So‘z erkinligi va huquq. Bu ikkisi bir-biriga chambarchas bog‘liq haqlardir. Shu o‘rinda bir jumlani kiritib o‘tishni ma’qul deb bildik. ”Biz demokratik mamlakatda yashayapmiz, demokratik davlatda esa so‘z erkinligi xalq uchun ham, rahbarlar uchun ham.” (Ayelet Shaked).

Jurnalistlarga qarshi huquqbuzarliklarni hujjatlashtiradigan nodavlat tashkilotlar qatoriga Chegara bilmas muxbirlar (RSF) va Jurnalistlarni himoya qilish qo‘mitasi (CPJ) kiradi. Har yili RSF Jahon matbuot erkinligi indeksini e’lon qiladi, unda xorijiy muxbirlar duch keladigan xavf-xatarlarni jurnalistik erkinlik darajasiga ko‘ra davlatlarni reytingi bilan taqqoslaydi. Jurnalistik erkinliklar, ba’zi o‘rinlardagi

⁵Qurban N., Saidov F; Jurnalistikaning huquqiy asoslari. – T.:”O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI”,2020. – B.12.

ta'qilalar ham aynan qonun hujjatlari orqali belgilanadi. Agos gazetasi bosh muharriri Hrant Dink o'zi bo'lgan Istanbulning Shishli shahridagi gazeta ofisi oldida oilasi, yaqinlari, huquq himoyachilari va hamkasblari tomonidan yodga olindi. 2007 yil 19 yanvarda o'ldirilgan. Dink o'ldirilgan Shishlidagi Sebat kvartirasi oldida to'plangan ko'plab fuqarolar, o'q otilgan joyga qizil chinnigullar, Agos gazetalari, sham va anorlar qoldirdi. Marosimda turk va arman tillarida "Sari Gelin" xalq qo'shig'i yangradi, kurd, arman va turk tillarida "Hrant uchun adolat", "Qotillikka 17 yosh", "Biz hammamiz Hrantmiz, biz hammasi armanlar". Dink, Anqara, Adana va Izmir kabi ko'plab joylarda (19-yanvar) uyushtirilgan tadbirlar bilan yodga olindi. Hozir esa siz bilan xalqaro miqyosda, 180 ta dunyo mamlakatlari va hududlarida jurnalistik qonun tizimining amaldagi ifodasini belgilab beruvchi so'z erkinligi statistikasi bilan shug'ullanuvchi "Chegara bilmas muxbirlar" (RSF) tashkilotining so'nggi 2023- va 2024- yillardagi tadqiqoti bilan yaqindan tanishib chiqamiz. RSF tashkiloti "so'z erkinligi darajasi"ni aniqlashda 5 jihatdan mamlakatlarni tahlil qiladi. Bular; siyosiy kontekst, huquqiy kontekst, iqtisodiy kontekst, ijtimoiy-madaniy kontekst va xavfsizlik jihatlaridir.⁶ 2023-yil reytingi bo'yicha yuqori o'rindagi va eng pastki o'rindagi davlatlarni sanab o'tsak. (Yuqori reytingdagi davlatlar)

1-o'rin bilan Norvegiya; 2- o'rin Irlandiya; 3-o'rin Daniya; 4-o'rin Shvetsiya; 5-o'rinni Finlandiya egallab turibdi. Mamlakatlar boshqaruv shaklining turli ko'rinishlari ularning so'z erkinligida ham namoyon bo'ladi.



(RSF tashkilotining 2023-yilgi so'z erkinligi indeksi xaritasi) **1.1-rasm**

7

Endi esa eng past ball bilan , reyting oxiridan joy olgan dunyo davlatlarini sanab o'tamiz; 176- o'rin Turkmaniston (25,82 ball); 177- o'rin Eron(24,81); 178- o'rin Vietnam (24,58); 179- o'rin Xitoy (22,97)va so'nggi 180- o'rinda Shimoliy Koreya

⁶ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Matbuot_erkinligi_indeksi

⁷ https://pressgazette.co.uk/media_law/rsf-world-press-freedom-index-2023/

(21,72 ball) joy olgan.⁸ Ma'lumot o'rnida uz.m.wikipedia.org saytida joylangan ma'lumotda 2023-yil hisobida O'zbekiston 45,73 ball bilan 137-o'rinda 2024-yil "Chegara bilmas muxbirlar" tashkiloti jahon matbuoti so'z erkinligi bo'yicha e'lon qilgan statistikasiga ko'ra, Norvegiya 91,89 ball bilan hanuzgacha birinchilikni bermasdan kelmoqda. 2-o'rinda Daniya 89,6 ball, 3-o'rinda Shvetsiya 88,32 ball, 4-o'rind Niderlandiyada 87,73 ball va 5-o'rind 86,55 ball to 'plagan holda Finlandiyada⁹.



10

(RSF tashkilotining 2024-yil e'lon qilgan indeks xaritasi) **1.2-rasm**

2024-yil "Chegara bilmas muxbirlar" tashkiloti jahon matbuoti so'z erkinligi bo'yicha e'lon qilgan statistikasiga ko'ra, Norvegiya 91,89 ball bilan hanuzgacha birinchilikni bermasdan kelmoqda. 2-o'rinda Daniya 89,6 ball, 3-o'rinda Shvetsiya 88,32 ball, 4-o'rind Niderlandiyada 87,73 ball va 5-o'rind 86,55 ball to 'plagan holda Finlandiyada¹¹. Bu statistika bo'yicha Niderlandiya kuchli beshlikka kirgan va Irlandiya bu safni tark etgan. Xususan, Niderlandiya 2023-yilda xavfsizlik ko'rsatkichida 67-o'rind 80,18 ball bilan turgan bo'lsa, xuddi shu jihat bo'yicha 2024-yilda 28-pog'onaga ko'tarilgan. 2024-yil indeksida reytingning oxirgi o'rinalidan joy olgan mamlakat va hududlar. 175-o'rind Turkmaniston 22,01 ball, 176-o'rind Eron 21,3 ball, 177-o'rind Shimoliy Koreya 20,66 ball, 178-o'rind Afg'oniston 19,09 ball, 179-o'rind Suriya 17,41 ball, 180-o'rind Eritriya.¹² Reyting ko'rsatkichlari har yili o'zgarishiga qaramasdan quyi va yuqori pog'onadagi davlatlar o'mi o'zgarishsiz qolgan deya olamiz.

⁸ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Matbuot_erkinligi_indeksi

⁹ <https://rsf.org/en/index>

¹⁰ <https://gijn.org/stories/2024-world-press-freedom-journalism-election-year/>

¹¹ <https://rsf.org/en/index>

¹² <https://rsf.org/en/2024-world-press-freedom-index-journalism-under-political-pressure>

1 Norway	31 Moldova	61 Ukraine	91 Papua New Guinea	121 Mexico	151 Cambodia
2 Denmark	32 Austria	62 South Korea	92 Guinea-Bissau	122 Lesotho	152 Pakistan
3 Sweden	33 Mauritania	63 Malawi	93 Haiti	123 DR Congo	153 Laos
4 Netherlands	34 Namibia	64 Sierra Leone	94 Senegal	124 Bolivia	154 Yemen
5 Finland	35 Dominican Rep.	65 Cyprus	95 Zambia	125 Peru	155 Tajikistan
6 Estonia	36 North Macedonia	66 Argentina	96 Chad	126 Singapore	156 Venezuela
7 Portugal	37 Seychelles	67 Hungary	97 Tanzania	127 Equatorial Guinea	157 Palestine
8 Belgium	38 South Africa	68 OECD	98 Serbia	128 Uganda	158 Turkiye
9 Switzerland	39 Australia	69 Congo-Brazzaville	99 Albania	129 Morocco / West. Sahara	159 India
10 Germany	40 Montenegro	70 Japan	100 Madagascar	130 Cameroon	160 UAE
11 Luxembourg	41 Cabo Verde	71 Comoros	101 Israel	131 Kuwait	161 Djibouti
12 Latvia	42 Slovenia	72 Andorra	102 Kenya	132 Jordan	162 Russia
13 Lithuania	43 Armenia	73 Malta	103 Georgia	133 El Salvador	163 Nicaragua
14 Canada	44 Fiji	74 Nepal	104 Angola	134 Philippines	164 Azerbaijan
15 Liechtenstein	45 Tonga	75 Kosovo	105 Mozambique	135 Hong Kong	165 Bangladesh
16 Belgium	46 Italy	76 Central African Rep.	106 Maldives	136 South Sudan	166 Saudi Arabia
17 Czechia	47 Poland	77 Guyana	107 Malaysia	137 Oman	167 Belarus
18 Iceland	48 Croatia	78 Guinea	108 Burundi	138 Guatemala	168 Cuba
19 New Zealand	49 Romania	79 Botswana	109 Mongolia	139 Algeria	169 Iraq
20 East Timor	50 Ghana	80 Niger	110 Ecuador	140 Lebanon	170 Egypt
21 France	51 Uruguay	81 Bosnia-Herzegovina	111 Indonesia	141 Ethiopia	171 Myanmar
22 Spain	52 Chile	82 Brazil	112 Nigeria	142 Kazakhstan	172 China
23 United Kingdom	53 Côte d'Ivoire	83 Panama	113 Togo	143 Libya	173 Bahrain
24 Jamaica	54 Belize	84 Qatar	114 Mali	144 Rwanda	174 Vietnam
25 Trinidad and Tobago	55 United States	85 Eswatini	115 Paraguay	145 Somalia	175 Turkmenistan
26 Costa Rica	56 Gabon	86 Burkina Faso	116 Zimbabwe	146 Honduras	176 Iran
27 Taiwan	57 Mauritius	87 Thailand	117 Brunei	147 Bhutan	177 North Korea
28 Suriname	58 Gambia	88 Greece	118 Tunisia	148 Uzbekistan	178 Afghanistan
29 Slovakia	59 Bulgaria	89 Benin	119 Colombia	149 Sudan	179 Syria
30 Spain	60 Liberia	90 Northern Cyprus	120 Kyrgyzstan	150 Sri Lanka	180 Eritrea

13

(RSF tashkiloti 2024-yil e'lon qilgan indeksi) **1.3-rasm**

Agar rivojlangan demokratik davlatlar matbuot qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning har biri turlicha taktika va statistika asosida ishlaydi. Xususan, dunyoda “Matbuot erkinligi to‘g‘risida”gi bиринчи qонун 1766-yil Shvetsiyada yaratilgan. 1949-yilda rasmiy qонун sifatida qayta qabul qilingan. 1991-yilda esa “So‘z erkinligi” to‘g‘risidagi qонун e’lon qilingan. **Buyuk Britaniya va Avstraliyada fikrni erkin ifodalash va matbuot erkinligining konstitutsiyaviy holati yo‘q.** Ularda so‘z erkinligini Angliya an'anaviy merosi sifatida Doktorinaning umumiyl huquqiy me'yordari asosida himoya qiladi. Chunki, ushbu davlat boshqaruvi monarxiya shaklida bo‘lib, Doktorina bu – qirov va qiroliche tomonidan chiqarilgan farmonlar va qarorlar majmuasidir. Buyuk Britaniya matbuot erkinligi uchun mustahkam kafolatlar tarafdori hisoblanadi. Ayrim shtatlar qonunlari Federal qonunlardan farq qiladi. **AQSHda federatsiya darajasida, ya’ni mamlakat miqyosida matbuot to‘g‘risida qonun qabul qilinmagan.** AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan “birinchi qo‘sishimcha” OAV faoliyatining asosiy huquqiy kafolati hisoblanadi. “Birinchi Qo‘sishimcha”da shunday deyiladi: “Kongress so‘z va matbuot erkinligini cheklaydigan qonunlar qabul qilishga haqli emas”. Xorijiy jurnalistlar, ayniqsa, milliy xavfsizlik va viza siyosati bilan bog‘liq muammolarga duch kelishlari mumkin. Xalqaro muxbirlar klubining AQShdagi bo‘limi xalqaro jurnalistlarning vizalar ololmasligi ularning xabar berish erkinligiga to‘sinqilik qilishi mumkinligidan xavotirdaligini bildirgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Jurnalistlarga qarshi huquqbazarliklarni hujjatlashtiradigan va targ‘ib qiluvchi nodavlat guruhlar qatoriga Chegara bilmas muxbirlar (RSF) va Jurnalistlarni himoya qilish qo‘mitasi (CPJ) kiradi. Har yili RSF Jahon matbuot erkinligi indeksini e’lon qiladi, unda xorijiy muxbirlar duch keladigan xavf-xatarlarni jurnalistik erkinlik darajasiga ko‘ra davlatlar reytingi bilan taqqoslaydi. Turli huquqiy me'yordar va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy jurnalistlar xavfsizligi uchun doimiy faollik va hushyorlik zarur. Milliy hukumatlar, fuqarolik jamiyat va xalqaro tashkilotlar birgalikda xorijiy jurnalistlarning erkin va xavfsiz faoliyat yuritishiga ishonch hosil qilishlari kerak. Bu so‘z erkinligi va jamoatchilikning axborot

¹³ <https://gijn.org/stories/2024-world-press-freedom-journalism-election-year/>



huquqlarini himoya qiladi. O‘zbekistondagi ko‘plab jurnalistlar va blogerlar o‘z ishlarini nashr etish va jamoatchilik bilan muloqot qilishdagi xavf-xatarlarga qaramay, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Facebook, Twitter va Telegram kabi ijtimoiy media saytlari endi yangiliklarni tarqatish va hukumatning qonunbuzarliklarini ta’kidlash uchun muhim manba hisoblanadi. - Jurnalistlar erkinligi: Bir qator hibsga olingan jurnalistlar, jumladan, ekstremizmda ayblanayotgan jurnalistlar ozod etilgani yaxshi voqeа deb baholandi. Lekin, birinchi navbatda, ularni hibsga olishga imkon yaratgan qonuniy asosda hech narsa o‘zgarmadi.COVID-19 pandemiyasi ommaviy axborot vositalari erkinligiga e’tibor qaratdi va yangi to‘siqlarni keltirib chiqardi.- Miraziz Bazarov ishi: Avval aytib o‘tganimizdek, Bazarov hukumatning pandemiyaga qarshi kurashini tanqid qilgani uchun uy qamog‘ida va ta’qibga uchragan. Bu ish nozik mavzularni yorituvchi jurnalistlar global miqyosda duch kelishlari mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan biri hisoblanadi. Jurnalistika rivojiga oid e’tiborga molik yangiliklardan biri 2021-yilda tashkil etilgan Milliy ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi bo‘ldiSababi, jurnalistlarimiz o‘z haq-huquqlarini bilmaganliklari ortidan voqealarga noto ‘g ‘ri yondashuv, kasbini suiste’mol qilish holatlari uchramoqda. Bu kabi holatlarga barham berish uchun taklif va tafsiyalarimiz shulardan iborat;

Birinchi o‘rinda-tanqidni to‘g‘ri qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yosh jurnalist va faoliyatdagi ba’zi jurnalist kadrlarga chet el ommaviy axborot vositalariga ta’lim berish andozalari bo‘yicha darslar va masterklaslar tez-tez tashkillashtirilib, amaliyotda ularning natijasi so‘ralishi;

Ikkinchchi o‘rinda- aynan jurnalistikaning turli yo‘nalish talabalari bilan oliygohlar o‘rtasida “jurnalistik-huquq” yoki “huquq va men” shiori, nomlari ostida bellashuv, zakovat bahslarini har bir kurs va yo‘nalish talabalari uchun alohida vaqtda, har 3oyda 1 marotaba bo‘lsa ham tashkillashtirilib turilishi;

Uchinchidan, O‘rta Osiyo yoxud turkiy davlatlarning yosh jurnalist kadrlari o‘rtasida kollaboratsiyani yo‘lga qo‘yish, ya’ni, ularning fikran hamohang bo‘lishlari uchun davlatlar o‘rtasida kelishuv va bitimlar imzolanib, kasbiy faoliyatlarini qo‘shni davlatlarda ham erkin holda davom ettirishlari ham huquqiy ham kasbiy mahoratlarini oshishiga yordam beradi deb hisoblaymiz. Bu jarayonda journalist faoliyatini va uning hayotiga har bir kelishuvga rozi davlat bir xilda javob berishi ham muhim.

To ‘rtinchidan, jurnalistlarni haqqoniy va xolis tarzda faoliyatlarini tekshirish uchun alohida jamoa, uyushma tashkillashtirilib, uning tarkibidagilar huquqiy, yuridik tomondan va albatta jurnalistik tomondan chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan va shu paytgacha o‘zi bilan ham birorta kasbiy suiste’mollik, korrupsiya, tuhmat, bo‘xton qilish holatlari yuz bermagan ustoz jurnalistlarimizdan tashkil topishi kerak.Sog‘lom demokratiya fuqarolar hokimiyyati, adolatli va erkin saylovlari, shaxs huquqlarini himoya qilish va hamkorlik kabi asosiy tamoyillarga ega. Bu tamoyillarning hayotga tatbiq etilishi uchun erkin matbuot muhim ahamiyatga ega. Buning uchta asosiy sababi bor:Matbuot erkinligi muhim, chunki erkin matbuot haqiqatni ochib beradi. Jurnalistlar tahlil qilish va tushuntirishga o‘rgatilgan ko‘plab, ko‘pincha juda murakkab masalalar mavjud. Gazetalar, radio ko‘rsatuvarlar, bloglar va hokazolarsiz o‘rtacha odam atrofida nimalar bo‘layotganini bilmaydi yoki umuman bilmaydi.Jamoa a’zolari BMT yoki boshqa turdagи xalqaro tashkilotlar tomonidan

himoya ostida bo 'lishlari lozim. "O'zbekiston Jurnalistlari Ijodiy Uyushmasi"ning vakolatiga xuddi shu vazifani qo'shish ham maqsad muvofiq bo'lar edi. Buning uchun xalqaro tashkilotlar bilan kelishuvlar imzolanishi va jurnalistlar ustidan bo 'ladigan har qanday sud jarayonlari (yopiq turdag'i sud bo'lishi davlat qonunlarida belgilanganlari bundan mustasno)xalqaro maydonda tomonlar fikri va surishtiruvlarda aniqlangan holatlar o'rganilib chiqilgandan keyin haqqoniyligini qaror qabul qilishlari va sud jarayonlari ochiq tarzda bo 'lishi ta'minlanishi kerak. Huquqiy vaziyatlar haqida so 'z borar ekan, sud tizimimiz va uning amaldagi ijrosini ham yoddan chiqarmasligimiz lozim. Ijro etuvchi hokimiyatning ish faoliyatiga nisbatan aholi o'rtasidagi salbiy fikr va noroziliklarini yo'qotish, qonunchilik maqsadi va amaldagi ijro o'rtasidagi farqni bartaraf etish uchun O'zbekistonda sud erkinligini kafolatlashimiz, qonunni qat'iy ijro etishi va jurnalistlar uchun repressiyadan qo'rqlaydigan muhitni yaratishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ichki va xalqaro advokatlikni davom ettirish juda muhim, chunki bu jurnalistlarning huquq va erkinliklarini ma'naviy va axloqiy himoya qilinishini kafolatlaydi. Ko'pgina tashkilotlar, jumladan, hukumatlar ham haqiqatning yashirin bo'lishidan foyda olishlari mumkin. Erkin matbuotning asosiy vazifalaridan biri hokimiyat ustidan nazoratchi bo'lib xizmat qilishdir. Matbuot xalq va qudratli shaxslar o'rtasidagi ko'prikdir. Agar matbuot erkin bo'lmasa, balki hokimiyatga tegishli bo'lsa, u shunchaki bu hokimiyatning kengaytmasi bo'lib xizmat qiladi. Matbuot erkinligi bo'lmasa, haqiqat davlatga tahdid solayotgan paytda gapirishga urinayotgan jurnalistlar qonun bilan himoyalanmaydi. Bu tsenzura va bosimni muqarrar qiladi. Xulosa sifatida shuni aytmoqchimizki, jurnalistika, media bilan bog'liq ish-faoliyatidagi insonlar haq-huquqi va erkinligini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning ba'zi joylardagi ayblariga munosib tarzda jazo usullarini ham qo'llash kerak. Huquqiy-demokratik davlat qurilishi, mamlakat aholisining ham huquqiy ham yashashga bo'lgan qarashlarini o'stirib, uni rivojlanishiga asos bo'ladi. Ayni damda yurtimizdagi jurnalistlarning huquqiy savodxonliklarini, tanqidni to'g'ri qabul qila olish qobiliyatining u qadar shakllanib ulgurmaganligini, hali huquqiy jihatdan kuchli bo'lgan jurnalist kadrlarimizning soni sanoqliligin hisobga olgan holda huquqiy-demokratik davlat qurilishi uchun barcha birdek harakat qilishi zarur. Ushbu qiyosiy tahlillar asosida yozilgan ishdan ko'zlagan maqsadimiz – OAV faoliyatidagi qonun hujjatlarini tanishtirib, eslatib o'tish edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Me'yoriy hujjatlar :

1. O'RQ-78-son 15.01.2007. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida – 5-6-7-moddalar. <https://lex.uz/docs/-1106870>
2. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni- 4-5-10-11-12-13-16-moddalar <https://lex.uz/acts/-52268>
3. 402-I-son 24.04.1997. "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni- 7(1)-, 11-19-moddalar . <https://lex.uz/docs/-9540>
4. O'RQ-42-son 20.07.2006. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi qonuni- 8-11-modda. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. 848-XII-son 07.05.1993. "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida" gi qonuni-3,5,6,7,8,10-moddalar. <https://lex.uz/ru/docs/-98850>
6. 560-II-son 11.12.2003. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning- 13-20-moddasi. <https://lex.uz/docs/-83472>
7. O'RQ-776-son 07.06.2022. "Reklama to'g'risida"gi qonun-19-27-moddalar <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>